



BADIY ASAR TAHLILIDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika iinstituti
2-bosqich talabasi

[@mail:muxtorqulovarushona@gmail.com](mailto:muxtorqulovarushona@gmail.com)

Telefon raqam: +998978162266

Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich

Denov tadbirkorlik va ppedagogik instituti
doktaranti

[@manzil: termiz_region@mail.ru](mailto:termiz_region@mail.ru)

Telefon:+99891-711-84-84

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asar va matn tahlili jarayonida olib boriladigan amaliy ishlar, matn tahliliga oid qarashlar, shu bilan birga pedagogik texnologiyalardan misol tariqasida immanent va kontekst yondashuvlariga oid jahon olimlarining fikrlari, mazkur yondashuvlarning tarixiga nazar tashlangan. Zamonaviy ta'lilda yangilik sanalgan immanent yondashuvi va kontekst yondashuvlariga izoh berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, mustaqil izlanish, innovatsiya, innovatsion jarayon, immanent yondashuv, kontekst yondashuv, pedagogik texnologiyalar, o'z-o'zini tarbiyalash

Jahon mamlakatlari taraqqiyotidan ma'lumki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi, unda yashovchi aholining ma'naviy saviyasi nechog'lik yuksakligiga bog'liq. Vaholanki, mustaqil O'zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq. Jumladan, yoshlarga talim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy sanat namunalaridan keng foydalanilmoqda. Ta'lim tizimida "Ustoz - shogird" ananalaridan foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasbhunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar



insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi"^[1] deb ta'kidlaydi prezidentimiz Sh..Mirziyoyev [1,489 b].

Shu bois musiqa darslarida o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda ta'limgarbiya tizimiga innovasion, ya'ni ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi bo'lib kelmoqda. Zamonaviy ta'limgarbiya pedagogik innovatsiyalarning o'rni va roli benihoyat katta.Chunki ta'limgarbiya tizimini jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab rivojlanib,takomillashib borishi juda muhim sanaladi.Bu rivojlanish ta'limgarbiya jarayonini bugungi davr talablari asosida tashkil qilishni talab qiladi.Ya'ni ta'limgarbiya tizimida yangicha yondashuvlarni qo'llash innovasion rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.Ayni o'rinda "Innovatsiya", "Innovatsion yondashuv" tushunchalariga izoh bersak:-innovatsiya-(ingliz tilidan olingan bo'lib, yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi;

-innovatsion yondashuv-yangilikning kiritilishi va mavjud shart-sharoitlari tizimini yangi sharoitlarga o'tishini ta'minlovchi o'zgarishlar demakdir.Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish bilan birga uni amaliyatga qo'llashdan iborat.Innovatsion yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarga ijodiy erkinlik orqali ta'limgarbiya beradi,ularning mustaqil fikrlashiga zamin yaratib beradi. Mazkur tushunchalarga izoh berishimizdan maqsad, ta'limgarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil qilishda yangicha yondashuvlarning kirib kelishi ayni muddaodir. Shunday ekan,eng avval o'quvchiga tanlab o'qishni o'rgatgan holda,uni kitobxonlikka jalb qilish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish bugungi pedagog kadrlardan jonbozlikni talab qiladi..Buning uchun zamonaviy ta'limgarbiya sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida fanda yangi pedagogik texnologiyalarga yondashgan holda, ta'limgarbiya berish maqsadga muvofiqdir.Ta'limgarbiya sifatini oshirishda pedagogik texnologiyalar juda ahamiyatlari sanaladi.O'zbekiston ta'limi maydoniga endigina qadam qo'yayotgan yangi yondashuvlar-immanent va kontekstual tahlil bugungi kitobxon uchun ilm sarhadlarini egallashda samarali natija beradi.Bizga yangilik sanalgan ushbu yondashuvlarni jahon olimlari qanday talqin qilishadi? degan savollar har qanday pedagogi o'ylantiradi.Shunday ekan,o'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuurida yangilik bo'lgan bu atamalar izohi,olimlar fikri bilan qiziqamiz.Zamonaviy ta'limgarbiya loyihalashtirish masalalarida, matn tahlilida juda qo'l keladigan texnologiyalar-immanent va kontekst yondashuvlarining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

-kontekst atamasi (lot. contextus-yaqin bog'lanish,bog'lanish)- demakdir.Kontekst matn mazmuniga e'tibor berish va unga tayanish qobiliyati



demakdir. Ma'lumotlarda berilishicha,mazkur atama 20-asr oxiridan boshlab zamonaviy filologiyaga kirib kelgan.Kontekst bu-muhokama qilinayotgan mavzuning mazmunini belgilaydigan matn bo'lagi ;

-kontekst –hodisalar sodir bo"ladigan va mazmun uchun ma'no taqdim etadigan holat ,ramka yoki jarayon demakdir;

-kontekst-“jips”, “bog'lanish”.Og'zaki va yozma nutqning nisbatan tugal qismi.Kontekst o'z tarkibidagi so'zlar yoki iboralarning ma'nolarini aniqlashga imkon beradi;

- adabiyotshunoslikda esa adabiy asar va undan tashqaridagi ,ham adabiy matnli,ham badiiy va matndan tashqari asoslar (tarjimayi holi,dunyoqarashi,ijodkorning o'ziga xosligi) o'rtasidagi cheksiz bog'lanish sohasidir.Ijodkor ijodining kontekstlari juda xilma-xil bo'lib,ko'p jihatdan adabiy asarlarning xususiyatlarini bog'laydi. Kontekstual yondashuv badiiy matnda biografik, tarixiy, adabiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa aloqalarni o"rnatadi. “Yaqin” kontekst tushunchasi haqida 1895- yilda Rossiyada tug"ilgan rus filologi va faylasufi M.M.Baxtin e'tiroficha, asarning ijodiy tarixi, muallif haqidagi biografik ma'lumotlar va adabiy kontekstni o'z ichiga oladi. “Uzoq” kontekstlar – an'analar nuqtai nazaridan madaniy-tarixiy, ijtimoiy, mifologik, adabiy jarayon sanaladi. Bir qarashda, kontekstual yondashuv immanentdan ko'ra soddaroq. Ammo 40 yildan ortiq pedagogik tajribaga ega bo'lgan filologiya fanlari doktori,professor hisoblangan rus faylasufi A.F. Losev shunday deb yozgan edi: “Ko'p adabiy va lingvistik kategoriylar orasida matn va kontekst kategoriylari diqqatni tortadi. Ular har doim umumiyligi tushunarli hisoblangan va ularning lingvistik, adabiy va san"atshunoslik tahliliga juda oz kiritilgan. Biroq, bu erda ham katta qiyinchiliklar mavjud. Shuni esda tutish kerakki, ilm-fandagi eng qiyin holat - bu tushunchani harakat nomi ravishda tushunish va bir qarashda hech kimga qiyinchilik tug'dirmasligidadir . Chet el olimlari “ Kontekst odatda , qandaydir tarzda berilgan matnni o'zgartirish,loyihalash” deb bilishadi.

Kontekst bu -matn mazmun-mohiyatiga chuqur e'tibor berish va unga tayanish qobiliyati demakdir; Kontekst yondashuvida asosiy e'tibor matnga qaratiladi.Shunday ekan,matn muallifining tarjimayi holi,dunyoqarashi,ijodkorning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda tahlil qilinadi.Ya'ni matn muallifi va matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganiladi. Bilamizki, chinakam san'at asarlari tili xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi,ya'ni asarda qo'llanilgan har bir so'z ,jumla,tasvir vositalari,hatto tabiat manzaralari ,so'z o'yinlari kitobxonlar



ommasiga tushunarli holatda ifodalaniladi. Adabiyot darslarida immanent yondashuvidan ham keng foydalansa,o'quvchilar o'zlashtirishida samarali natija kuzatiladi. Immanent atamasini fanga birinchilardan bo'lib nemis olimi Emmanuel Kant olib kirdi.Kant axloqni shaxsning immanent sifatlaridan biri deb hisobladi.

-Immanent- lotincha “immanens”, “immanentis”-o'ziga xos xususiy degan ma'noni bildiradi.,tabiatidan biror hodisaning ichki xususiyatlariga xos.Bu yondashuv matn tahlilida juda qo'l keladi;

- Immanent atamasi –tashqi ta'sirlardan qat'iy nazar ,obyektning o'ziga xos tabiatiga ega;

Immanent - o'rganilayotgan ob'ektning tabiatiga, uning ichki dunyosiga, matndan tashqari bo'lgan hissiyotlarga xosdir. Immanent yondashuv yoki tahlil so'zning mazmuniga muvofiq asarning mohiyati va tuzilishiga, uning rasmiy elementlariga, ularning munosabatlariga va vazifalariga qaratilgan matndan tashqariga chiqishni nazarda tutadi..Demak,kontekst va immanent yondashuvlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud.Ushbu yondashuvlar tamoyillari 1920-yillarda A.P. Skaftymovning fikriga ko'ra, “Asar kompozitsiyasi o'z-o'zidan uni talqin qilish me'yorlariga ega va shuning uchun asarni tashkil etuvchi barcha birliklarni to'liq kuzatgan holda, rasmlar, obrazlar, sahnalar, muallifning tushuntirishlari va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.”Immanent yondashuvi bir necha bor yuksak tajriba egasi, rus adabiyotshunos olimi M.L. Gasparov tomonidan tahlil qilingan.1922-yil Sankt-Peterburgda tug'ilgan rus adabiyotshunos olim,professor M.Y.Lotman esa bu yondashuvni “monografik yondashuv” deb atagan va matnni “birinchi so'zdan oxirgi so'zgacha” dastlabki ko'rib chiqish sifatida tan olgan. Immanent yondashuvi matn tahlili bilan aloqador texnologiya sanaladi. Ilmiy ma'lumotlarda immanent atamasi matnda voqe'likka xolis munosabat bildirib,uning ichki tuzilishini 3-shaxs tomonidan yoritishga e'tibor qaratadi.

Adabiyot o'qitishdagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtirmay, deyarli barcha darslarda qo'llash mumkin bo'ladigan universal qonuniyatlarni kashf etmay turib, yoshlarga adabiy tarbiya berish samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Adabiyotshunoslik nazariyasi fani adabiy ta'lim kechimidagi ana shu eng umumiyligi jihatlarni o'rganadi, adabiyotni anglatishda qo'llaniladigan metod va usullarni tahlil qiladi. Ammo “universal qoidalar” tushunchasini har qanday holatda ham hech bir o'zgarishsiz qo'llayverish mumkin bo'lgan doimiy usullar tarzida qabul etmaslik kerak. Negaki, pedagogika ilmi va amaliyoti jabhasiga, yoppa universalizmni tatbiq etish mumkin emas. Metodikadagi universalizm deyilganda,



adabiy ta'lif jarayonida bir martadan ko'proq ishlatish mumkin bo'lgan didaktik usul va yechimlar nazarda tutiladi. Har bir o'qituvchi u yoxud bu pedagogik muammoni o'z tajribasi va bilimi darajasidan kelib chiqib, o'zicha hal etishini ko'zda tutgan holda muayyan umumiyligini qonuniyatlarni topish va ulardan foydalanib, adabiy ta'lifni yaxshiroq yo'lga qo'yish mumkin.

Adabiyotshunoslik nazariyasi, xususan, badiiy asar tilini o'qitish samaradorligini oshirish yuzasidan beriladigan tavsiyalar retsept yo'nalishida, bir marta o'r ganib olib umr bo'yi qo'llayveradigan axborot sifatida emas, balki konseptual tabiatga ega bo'lib, har qanday masala echimining turli variantlari bo'lishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Umuman olganda, adabiy ta'lif jarayonini o'rganish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish hamda bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishning o'ziga xos metodlari mavjuda. Kuzatish, so'rov, tabiiy sinov, laboratoriya eksperimenti, ta'lif hujjatlarini o'rganish, talabalarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari qator ilmiy-tadqiqot metodlari borki, ular ko'magida adabiyot ilmi bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib boriladi. Adabiyotshunoslik nazariyasi predmetining badiiy asar tili bo'limi pedagogika ilmining xususiy bir sohasi sifatida, birinchi navbatda, pedagogika bilan bog'liq. Chunki bu bo'lim jzasidan chiqariladigan xulosa va berilajak tavsiyalar talabalarning fiziologik va ruhiy xususiyatlariga maksimal darajada mos kelishi kerak. Shuning uchun ham u psixologiya fani yutuqlariga tayangandagina samarali ish ko'ra oladi.

Badiiy adabiyot o'z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo'lib tuyulsada, amalda insonning odamlik martabasiga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma'naviy sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyotda inson ruhiyati aks etadi. Binobarin, o'z ahlida ezgu ruhiy sifatlarni qaror topdirmoqchi bo'lgan millat ta'lif muassasalarida adabiyot o'qitishni imkon qadar samarali yo'sinda tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Negaki, adabiyot yordamida bilvosita shakllantirilgan ma'naviy sifatlarni inson ruhiyatining ezgu bo'lishiga olib keladi. Ezgu ma'naviy fazilatlar esa, shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining omilidir.

Ayniqsa, inson omilining salmog'i ortib, bir odamning qo'lidan ulkan yaxshiliklar ham, tengsiz yovuzliklar ham kelishi mumkinligi talabalarga imkon qadar ko'proq ezgu sifatlarni singdirish kerakligini taqozo etadi. Binobarin, adabiyotshunoslik nazariyasi fanining predmeti muhim ijtimoiy salmoq kasb etadi. Badiiy asar o'qishga doimiy ehtiyoj, adabiyotdan xabardorlik, o'qiganlarni



tushunish va tahlil qila olish hamda bu xususda istasa og‘zaki, tilasa yozma shaklda ravon fikr bayon qilabilish millat ahli intellektual rivojidan dalolat bo‘ladi. SHuning uchun ham adabiyot o‘qitishni samarali yo‘lga qo‘yish talabalarning o‘zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan didaktik tadbirgina bo‘lmay, yoshlarda ezgu ma’naviy sifatlar tarkib topdirishga yo‘naltirilgan umumilliy ahamiyatga ega yumushdir.

Ta’limning gumanitarlashishi, o‘quv-tarbiya ishlaringning gumanizatsiyalashuvi, ta’limning differensiallashuvi, o‘quv fanlarining integratsiyalashuvi, o‘qitish saviyasining ham adabiyotshunoslik va pedagogika ilmining hozirgi darajasiga ko‘tariluvi adabiy ta’limga tamomila o‘zgacha yondashish zaruriyatini tug‘diradi.

Aytish kerakki, XX asrning 60-yillaridan e’tiboran pedagogika ilmida paydo bo‘lgan konstruktiv pedagogika nazariyasi bugunga kelib, adabiyotshunoslik nazariyasining tabiatiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatib, uning mohiyatini o‘zgartirib yubormoqda. SHuningdek, ta’lim nazariyasi va amaliyotiga “texnologik ta’lim” tushunchasining kirib kelishi fanni o‘qitishda ham bir qator yangiliklar sodir bo‘lishini taqozo etmoqda. Ko‘pincha, pedagogik texnologiyaga ta’lim jarayonini osonlashtirishga, uni ma’lum darajada isloh qilishga qaratilgan amaliyot tarzida qaraladi. Holbuki, bu tushunchani “pedagogik texnologiya” emas, balki “texnologik ta’lim” tarzida qo‘llash hamda uning o‘qitish sohasida tub inqilobiy o‘zgarishlar qilish yo‘li ekanligini tushunish kerak bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, texnologik ta’limning o‘qitish jarayoniga industrial tovar ishlab chiqarishdagi kabi konveyer usulini joriy etish, o‘qitishning texnologiyasini faqat qobiliyatli va intizomli talabalar emas, ta’lim jarayoniga tortilgan barcha talabalar ham mo‘ljal qilingan natijalarga erisha oladigan tarzda tashkil etish mumkinligi adabiyot ilmi mutaxassislari oldiga ham jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Binobarin, bugungi kunda adabiyotshunoslik nazariyasini o‘rganayotgan bo‘lajak mutaxassislar yaqin vaqtarda, o‘zining pedagogik iste’dodidan qat’i nazar, barcha talabalarning konveyer yo‘sindida yaxshi o‘qiy olishlarini yo‘lga qo‘yish sirlarini egallab olishlari lozim bo‘ladi. Endilikda o‘qituvchining talanti va mahorati emas, balki ta’lim mazmunininig strukturasi hamda pedagogik muhit va sharoitning uyushtirilishi o‘qitishning samaradorligini ta’minalashiga erishish ko‘zda tutilmoqda. Zotan, badiiy asar tanlanganlarga nasib qilganiday, uni birdaniga oson va to‘g‘ri tushunish ham hammaga xos emas. Bu o‘qituvchining zimmasida bo‘lgan mas’uliyatdir. Badiiy asar tiliga maftun bo‘lgan



yoki aksincha aynan til tufayli uni yoqtirmay qolgan talaba o‘z hissiyotlari boisi asar tilida ekanini xayoliga ham keltirmasligi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik – T.: “Fan”, 1991-1992 yillar.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T., O’qituvchi. 2005 yil.
3. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. (O’quv qo’llanma)– T. Kamalak. 2016.
4. Nazarov B., Rasulov A. Va boshqalar. O’zbek adabiy tanqidi tarixi. – T., Tafakkur qanoti. 2012.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T., Navoiy universiteti. 2018.
6. Jo’raqulov U. Nazariy poetika. – T.: “Sharq”, 2016- yil.
7. O’zbek adabiy tanqidi. Antologiya. -T., Turon iqbol. 2011.
8. O’zbek mumtoz adabiyotshunosligi. Antologiya. –T., O’zME. 2016.
9. O’zbek folklorshunosligi. Antologiya. –T., O’zME. 2017.
10. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.
11. Rustamovich T. A. Islom Ta’limotlarda Shaxs Ma’naviyati Masalalari //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 186-190.
12. Rustam o‘g A. T. et al. Milliy o‘quv dasturining hayotimizdagи o‘rni //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 88-93.
13. Rustam o‘g A. T. et al. XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O ‘QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 94-100.
14. Rustam o‘g A. T. et al. Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 101-109.